INGLIZ TILI KO`NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Sattarova Go`zal Sattarovna
Samarqand davlat chet tillari instituti 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **Zubaydova Nilufar Ne’matillayevna**
Samarqand davlat chet tillari instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy ishda raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini o`zlashtirish jarayoni, jumladan, o`qib tushunish, tinglash, so‘zlashish, yozma nutq, shuningdek, so‘z boyligi va talaffuz malakalarini oshirish masalalari tadqiq etiladi. Shuningdek, zamonaviy mobil ilovalar, tarmoq platformalari, neyrotarmoq texnologiyalari, o`yinlashtirish (gamifikatsiya) usullari hamda asl media manbalarining afzalliklari qatori ularning cheklovchi omillari ham tahlil qilinadi. Raqamli yondashuvlar L. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish sohasi”, S. Krashenning qabul qilish gipotezasi, M. Sueynning nutqiy mahsul ishlab chiqarish nazariyasi hamda Z. Dyorneyning motivatsion konsepsiyalari asosida yoritib beriladi. Maqola yakunida texnik vositalardan unumli foydalanish yuzasidan amaliy tavsiyalar keltirilgan.*

**Kalit so`zlar:** *raqamli texnologiyalar, ingliz tili ko`nikmalari, mobil ilovalar, sun’iy intellekt, gamifikatsiya, autentik materiallar, mustaqil ta’lim.*

Аннотация: *В данной научной работе исследуется процесс усвоения английского языка с помощью цифровых технологий, включая чтение, аудирование, говорение, письмо, а также развитие лексики и произношения. Рассматриваются преимущества и ограничения мобильных приложений, онлайн-платформ, инструментов искусственного интеллекта, геймификации и аутентичных медиаресурсов. Цифровые инструменты соотносятся с теоретическими положениями Выготского, Крашена, Суэйна и Дёрнеи. Даются практические рекомендации по эффективному использованию технологий.*

Ключевые слова: *цифровые технологии, навыки английского языка, мобильные приложения, искусственный интеллект, геймификация, аутентичные материалы, самостоятельное обучение.*

Abstract: *This article examines the role of digital technologies in developing English language skills: reading comprehension, listening, speaking, written speech, vocabulary, and pronunciation. It analyzes the advantages and constraints of modern mobile applications, web platforms, neural network tools, gamification techniques, and authentic media resources. Digital approaches are conceptualized through Vygotsky's 'zone of proximal development',*

Krashen's input hypothesis, Swain's output hypothesis, and Dörnyei's motivational frameworks. Practical guidelines for the effective adoption of technological tools are provided.

Keywords: *digital technologies, English language skills, mobile applications, artificial intelligence, gamification, authentic materials, autonomous learning.*

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida ingliz tili xalqaro muloqot, fan-texnika taraqqiyoti hamda professional faoliyatning ajralmas bo`lagiga aylandi, natijada uni o`rganishga bo‘lgan ehtiyoj har qachongidan ham ortdi. Biroq chet tilini egallash tor doiradagi grammatik qoidalarni yod olishdan iborat emas: u o`qish, tinglab tushunish, og‘zaki nutq va yozish kabi to‘rt fundamental ko‘nikmani, qolaversa, leksik zaxira va to‘g‘ri talaffuzni birdek rivojlantirishni talab qiladi.

Klassik ta’lim shakllarida tinglovchilar ko`pincha bir xildagi o‘quv qurollari va bir xil tempda ish olib borishadi. Buning oqibatida so`zlashish amaliyotiga yetarlicha vaqt ajratilmaydi, audiomateriallar bilan ishlash sinfdagi umumiy tinglashdan nariga o`tmaydi, yozma ishlarga bildiriladigan taqrizlar esa uzoq muddatdan keyingina yetib keladi. Raqamli innovatsiyalar ana shu qiyinchiliklarni sezilarli darajada yengillashtiradi: o`quvchi xohlagan vaqtida va istalgan hududda shug`ullanishi, yo‘l qo‘ygan xatolarini zudlik bilan aniqlashi hamda haqiqiy chet tili muhitiga sho‘ng‘ishi mumkin. Biroq shuni ham ta’kidlash joizki, texnologiyaning o`zigina kafolatlangan natijani ta’minlay olmaydi. Uning samarasi qo`yilgan maqolaning aniqligiga, tanlangan vositaning mosligiga va ta’lim oluvchining shaxsiy mas’uliyatiga tayanadi. Mazkur tadqiqotning bosh maqsadi - raqamli vositalarning har bir til malakasini oshirishdagi salohiyatini ilmiy-nazariy qarashlar bilan uyg`unlashtirgan holda tahlil qilish hamda amaliy ko`rsatmalar berishdir.

1. Nazariy asoslar. Raqamli texnologiyalarni o`quv jarayoniga tatbiq etishning pedagogik poydevorini to`rtta ilmiy nazariya orqali izohlash maqsadga muvofiq:

L. S. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish sohasi” nazariyasiga ko`ra, o‘quvchi mustaqil bajara oladigan hamda ko‘mak yordamida uddalay oladigan vazifalar oralig‘ida bilim olish jarayoni eng yuqori samaradorlikka erishadi. Bugungi ilovalar topshiriq darajasini foydalanuvchining ko`rsatkichlariga qarab avtomatik moslashtirib, aynan shu optimal oraliqda faoliyat yuritishni ta’minlaydi.

S. Krashenning qabul qilish (input) gipotezasiga binoan, til shaxsning hozirgi saviyasidan biroz ilgarilab ketgan, biroq anglab yetish mumkin bo`lgan ma’lumotlar orqali o‘zlashtiriladi. Subtitrli videolar, darajalarga bo`lingan adabiyotlar va sekinlashtirilgan audiolavhalar ana shunday qulay sharoitni yaratib beradi.

M. Swainning mahsul chiqarish (output) gipotezasi tilni mukammal egallash uchun faqatgina qabul qilishning o`zi yetarli emasligini, talaba o`z fikrlarini nutq va yozma shaklda bayon qilishi lozimligini uqtiradi. Tarmoqdagi suhbatlar, ovoz yozish dasturlari va sun’iy intellekt bilan muloqot qilish imkoniyatlari shunday muhitni shakllantiradi.

Z. Dörnyei motivatsiyani til o`rganishdagi hal qiluvchi omil deb baholaydi. O`yin elementlari, qiziqarli kontent va tezkor teskari aloqa (feedback) o`quvchining qiziqishini barqaror saqlab turishga yordam beradi.

2. Raqamli texnologiyalar yordamida konikmalarni rivojlantirish

2.1. O`qish. Elektron kitoblar, tarmoqdagi davriy nashrlar va maqolalar matn bilan ishlashni ancha qulaylashtiradi. Interaktiv lugatlar bilan integratsiyalashgan ilovalar noma’lum so`zlarni birgina bosish orqali tarjima qilib, o`qish sur’atining buzilishini oldini oladi. Tilni o`zlashtirish darajasiga ko‘ra (masalan, A2, B1, B2) tasniflangan matnlar o‘quvchiga o‘z imkoniyatiga mos kontektni tanlash imkonini beradi; bunda Yevropa umumiy tavsiya tizimi (CEFR) asosiy mezon vazifasini o‘taydi. Soddalashtirilmagan autentik materiallar (ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, ilmiy-ommabop maqolalar) o`quvchini tabiiy til muhiti bilan tanishtiradi, biroq ularni tanlashda ehtiyotkor bo`lish zarur, chunki haddan tashqari murakkab matnlar o`qishga bo‘lgan ishtiyoqni so‘ndirishi mumkin.

2.2. Tinglab tushunish. Internet tarmog`i turli podkastlar, ma’ruzalar, xabarlar va videoqo`llanmalarga boy. Tinglash malakasini oshirish uchun ovoz tezligini pasaytirish, dastlab inglizcha subtitrlar bilan, keyinchalik ularsiz eshitish hamda eshitilgan axborotning qisqacha mazmunini qog`ozga tushirish tavsiya etiladi. BBC Learning English yoki TED taqdimotlari kabi asl audio-video manbalar tilning tabiiy ohangi va talaffuz xususiyatlarini yaqqol namoyish etadi. O`quvchi o‘z shaxsiy qiziqishlariga mos mavzularni tanlasa, uning tinglash jarayoniga bo‘lgan rag‘bati yanada ortadi.

2.3. Gapirish va talaffuz. Aksariyat talabalar yuzma-yuz muloqot chog`ida xato qilishdan cho‘chinadilar. Raqamli makon bu kabi psixologik to`siqlarni bartaraf etadi: ovozli yordamchilar, nutqni tahlil qiluvchi dasturlar va muloqot ilovalari ortiqcha bosimsiz shug`ullanish imkonini taqdim etadi. Talaffuzni mukammallashtirishda “shadowing” (notiq ortidan kechikmasdan, bir vaqtda takrorlab borish) usuli juda qo`l keladi. Buning uchun audioni sekinlashtirish va kerakli qismlarini takroran eshitish imkonini beruvchi ilovalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, videoaloqa formatidagi xalqaro muloqot jamoalari jonli tajriba orttirishga yo`l ochadi.

2.4. Yozish. Yozma nutqni shakllantirishda matn muharrirlari, imlo va grammatikani tekshiruvchi dasturlar hamda birgalikda ishlash platformalari (masalan, Google Docs) muhim o`rin tutadi. Ular xatoliklarni darhol korsatib, o‘quvchiga matnni qayta ishlash (revision) imkoniyatini taqdim etadi. Sun’iy intellekt tizimlari matnni tahrirlash, muqobil iboralarni

tavsiya qilish va xatolarning sababini tushuntirishda ko`maklashishi mumkin. Asosiysi, o`quvchi tayyor tahrirlangan matni shunchaki ko`chirib qo‘ymasdan, xatolarning kelib chiqish sababini anglab yetishga intilishi lozim.

2.5. Lug‘at boyligi va grammatika. Kartochkalar va oraliq masofada takrorlash (spaced repetition) tamoyiliga asoslangan ilovalar (Anki, Quizlet kabi) yangi leksik birliklarni uzoq muddatli xotirada saqlab qolishga ko`maklashadi. Kunlik qisqa mashg`ulotlar tizimlilikni ta’minlaydi: kunduzi o`zlashtirilgan so‘zlarni kechki payt tuzilgan gaplarda ishlatish yoki tinglash orqali mustahkamlash mumkin. Grammatikani o`zlashtirish uchun interaktiv testlar o`quvchining bo‘shliqlarini aniqlab, unga mos vazifalarni taklif etadi.

3. Onlayn platformalar, gamifikatsiya va sun’iy intellect. Moodle va Google Classroom singari ta’limni boshqarish tizimlari o`qituvchilarga vazifalarni yuklash, muddatlar va baholash mezonlarini belgilash hamda talabalar faoliyatini monitoring qilishda qulayliklar yaratadi. Talabalar esa o`z ko‘rsatkichlarini kuzatib, rivojlanish dinamikasini nazorat qila oladilar.

O`yin elementlarini (ballar, bosqichlar, rag`batlar, kundalik seriyalar) o‘quv jarayoniga singdirishni anglatuvchi gamifikatsiya motivatsiyani kuchaytirib, muntazam ravishda shug‘ullanishga undaydi. Biroq bunda ma’lum bir xavf ham mavjud: ta’lim oluvchi chinakam bilim olishdan ko`ra shunchaki ball to‘plash yoki reytingda yuqoriga chiqishga intilib qolishi ehtimoli bor. Shu sababli muvaffaqiyatni dasturdagi raqamlar bilan emas, balki amaldagi ko‘nikmalar - erkin muloqot qilish, matn yarata olish va eshitganini tushunish darajasi bilan baholash zarur. Sun’iy intellekt vositalari til o`rganish jarayonida ikki xil vazifani bajarishi mumkin: suhbatdosh sifatida (muloqot mashqlari, rolli o`yinlar) va yordamchi ustoz sifatida (xatolarni tahlil qilish, misollar keltirish, izoh berish). Shunga qaramay, ular har doim ham mukammal yoki mutlaq to`g`ri javob berolmaydi. Shu boisdan ularni so`nggi haqiqat manbai sifatida emas, balki ko`makchi vosita deb bilish, olingan ma’lumotlarni darslik, lug`at yoki pedagog bilan tekshirib ko‘rish maqsadga muvofiqdir.

4. Samarali foydalanishning amaliy bosqichlari.Raqamli vositalar tartibsiz qo`llanilganda kutilgan samarasini bermaydi. Mustaqil ta’limni to`g`ri tashkil etish uchun quyidagi ketma-ketlik tavsiya etiladi:

Diagnostika: o`qish, tinglash, og‘zaki va yozma nutq bo‘yicha boshlang‘ich darajani aniqlash (masalan, CEFR standartidagi onlayn testlar orqali), kuchli hamda zaif nuqtalarni belgilab olish.

Maqsad belgilash: umumiy xohishni aniq o`lchanadigan natijaga aylantirish. Masalan, “yaxshi gapirishni xohlayman” deyish o`rniga, “har hafta 3 marta 10 daqiqadan ingliz tilida ovozli xabar yozib olaman” deb rejalashtirish.

Vosita va jadval tanlash: har bir til malakasi uchun mos resursni tanlash – matnlar uchun maqolalar, tinglash uchun podkastlar, so`zlashish uchun muloqot ilovalari, yozish uchun shaxsiy blog yoki kundalik.

Amaliyot va monitoring: izchil shug`ullanish, amalga oshirilgan ishlarni qayd etib borish. Diqqatni jamlash uchun mashg`ulot paytida xabarnomalarni o‘chirib qo‘yish ham foydali natija beradi.

Refleksiya: haftalik natijalarni sarhisob qilish, qaysi usullar qo`l kelganini aniqlash va zarur bo`lsa rejalarga o‘zgartirish kiritish.

5. Cheklovlar va xavflar. Raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari ulkan bo`lishiga qaramay, ularning bir qator o`ziga xos cheklovlari ham mavjud:

Raqamli tengsizlik: hamma o`quvchilar ham birdek sifatli internet, zamonaviy qurilma va yetarli raqamli savodxonlikka ega emas. Shu sababli ta’lim faqatgina internetga tayanib qolmasligi, bosma kitoblar va yuklab olingan resurslar kabi muqobil usullar ham saqlanishi kerak.

Sifatsiz kontent: internetdagi har bir axborot manbasi ham ishonchli emas, shu bois ma’lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan baholash talab etiladi.

Passiv yondashuv: ilovada ko`p vaqt sarflash o‘z-o‘zidan til rivojlanishini anglatmaydi; faol ravishda og‘zaki va yozma nutq mahsulini yaratish talab qilinadi.

Sun’iy intellektga haddan tashqari bog`lanib qolish: bu holat mustaqil fikrlash va xatolarni o`zi topish qobiliyatini zaiflashtirishi mumkin.

Insoniy muloqotning o`rni: texnologiya o‘qituvchining pedagogik mahorati va jonli muloqot muhitini to‘laligicha almashtira olmaydi.

Bugungi ta’lim muhitida ustoz shunchaki axborot yetkazib beruvchi emas, balki yo`naltiruvchi, maslahatchi va o‘quvchining o‘sish jarayonini baholovchi mutaxassis sifatida namoyon bo‘ladi. Qaysi texnologiya o`quvchiga mos kelishini topish aynan professional pedagogik mahoratni talab etadi.

XULOSA

Raqamli texnologiyalar ingliz tili malakalarini oshirishda keng ko‘lamli imkoniyatlarni taqdim etmoqda: podkast va videolar tinglashni, elektron matnlar o‘qishni, nutqni aniqlovchi vositalar hamda onlayn muloqot gapirishni, matn muharrirlari va sun’iy intellekt yozishni, ilovalar esa leksika va grammatikani mustahkamlashga ko‘maklashadi. Gamifikatsiya motivatsiyani oshirsa, onlayn platformalar jarayonni tizimli kuzatish imkonini beradi.

Shu bilan birga, texnologik vositalarning samaradorligi ularning qanday maqsad va qaysi uslubda qo`llanilishiga borib taqaladi. Eng yaxshi natijalarga erishish uchun boshlang`ich darajani aniq baholash, o`lchanadigan maqsadlar qo‘yish, mos jihozlarni tanlash, tizimli mashq qilish va natijalarni tahlil qilib borish talab etiladi. Demak, tilni muvaffaqiyatli

o`rganishning asosi texnologiyaning o‘zida emas, balki o‘quvchining undan maqsadli, mas’uliyatli va ustoz ko‘rsatuvi asosida foydalanishidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Warschauer M., Healey D. (1998). Computers and language learning: An overview. Language Teaching, 31(2), 57–71.

2. Chapelle C. A. (2001). Computer Applications in Second Language Acquisition. Cambridge: Cambridge University Press.

3. Vygotsky L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.

4. Krashen S. D. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Oxford: Pergamon Press.

5. Swain M. (1985). Communicative competence: Some roles of comprehensible input and comprehensible output in its development. In: Gass S., Madden C. (Eds.), Input in Second Language Acquisition (pp. 235–253). Rowley, MA: Newbury House.

6. Dörnyei Z. (2005). The Psychology of the Language Learner: Individual Differences in Second Language Acquisition. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.

7. Council of Europe (2020). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume. Strasbourg: Council of Europe Publishing.

8. Google Classroom. https://classroom.google.com/

9. Moodle. https://moodle.org/